Abstract. This article examines the issue of increasing regional tax capacity in the context of the transition to a green economy. It notes that the transition to a green economy and ensuring green growth are closely linked to the economic potential of regions and the need to increase their tax capacity. The article reflects scientific approaches to determining the tax potential of regions and the processes associated with this potential. The need to assess regional tax potential and improve the mechanism for collecting local taxes is also noted, as indicators of tax potential and tax collection are the most important indicators for forecasting and planning budget taxes. Emphasis was placed on the need for further development of small businesses and private entrepreneurship to strengthen the budget revenue base. The article reflects issues related to increasing the tax potential of regions, which are reflected in the Strategy of the Republic of Uzbekistan for the transition to a "green" economy.

Keywords: green economy, strategy, production, tax potential, state budget, direct taxes, indirect taxes, tax incentives, tax administration, technology, innovation, investment, macroeconomic indicators, strategy, local budget, production, tax revenue forecasting, financial resources, tax policy.



Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы повышения налогового потенциала регионов в контексте перехода к «зеленой» экономике. Отмечается, что переход к «зеленой» экономике и обеспечение «зеленого» роста тесно связаны с экономическим потенциалом регионов и вопросами повышения их налогового потенциала. В статье отражены научные подходы к определению налогового потенциала регионов и процессы, связанные с этим потенциалом. Также отмечается необходимость оценки регионального налогового потенциала и совершенствования механизма сбора местных налогов, тот факт, что показатели налогового потенциала и сбора налогов являются наиболее важными индикаторами прогнозирования и планирования бюджетных налогов, а также необходимость дальнейшего развития малого бизнеса и частного предпринимательства для укрепления бюджетной доходной базы. В статье отражены вопросы, связанные с повышением налогового потенциала регионов, которые отражены в Стратегии Республики Узбекистан по переходу к «зеленой» экономике.

Ключевые слова: «зеленая» экономика, стратегия, производство, налоговый потенциал, государственный бюджет, прямые налоги, косвенные налоги, налоговые льготы, налоговое администрирование, технологии, инновации, инвестиции, макроэкономические показатели, стратегия, местный бюджет, производство, прогнозирование налоговых поступлений, финансовые ресурсы, налоговая политика.

KIRISH

Mamlakatimizning “yashil” iqtisodiyotga o'tish va milliy iqtisodiyotni isloh qilish sharoitida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash bo'yicha samarali chora-tadbirlar ko'rilmogda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish, shuningdek, hududlarning soliq salohiyatini oshirishni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmogda. Budjetni to'ldirishda soliq salohiyati katta rol o'ynaydi. Soliqlar davlat daromadlarining asosiy manbai bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlar va umuman davlatning turli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini, davlat investitsiyalarini hamda boshqa muhim loyihalarni moliyalashtirishni ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan mamlakatning soliq salohiyatini oshirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilgan.

Ma'lumki, jahon hamjamiyatida siyosiy va iqtisodiy rivojlanishdagi noaniqliklar, turli xavf va tahdidlarning o'sib borayotganini hisobga olgan holda, Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ni amalga oshirish vazifasi ayniqsa dolzarb bo'lib qolmogda.

Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishiga muvofiq so'nggi besh yilda asosiy iqtisodiy islohotlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani pasaytirish, soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, biznes uchun qulay muhit yaratish, infratuzilmani yaxshilash, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy integratsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlariga qaratildi. Islohotlar hamma uchun teng va erkin raqobat muhitini yaratib, Milliy barqaror rivojlanish 10-maqsadiga erishishga imkon berdi. Ortiqcha yig'implarni bartaraf etish va soliq stavkalarini me'yorlashtirish tufayli tadbirkorlik subyektlariga soliq yuki kamaytirildi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasida quyidagi strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash dasturida ustuvor yo'nalishlar belgilangan¹.

... “soliq yukini korxonalar va uy xo'jaliklaridan atrof-muhitning ifloslanishiga va resurslarning isrofchiligidan olib keladigan faoliyatga o'tkazish: yoqilg'i solig'i shaklida imtiyozlar yaratish hamda ekologik toza yoqilg'i va resurslardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha soliq tizimini takomillashtirish; yashil texnologiyalar va infratuzilmaga sarmoya kiritish orqali yashil ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish; soliqlar va davlat xarajatlarining yashil iqtisodiyotga tegishliligi va ta'sirini baholash hamda ochib berish uchun yashil budjet metodologiyasini amalga oshirish — yashil ustuvor hududlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan soliqlar va davlat xarajatlarining ulushini baholash uchun yashil budjet metodologiyasini amalga oshirish; ekologik toza va xavfsiz texnologiyalarni joriy etuvchi sanoat korxonalari uchun maxsus imtiyoz va preferensiyalar (subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqalar) ishlab chiqish va berish” [2] ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda hududlarning soliq salohiyatini oshirish doirasida moliya, budjet va iqtisodiy jarayonlarning barqaror rivojlanishiga erishish vositasi sifatida qaraladigan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tarkibiy qismlarni o'zaro bog'lash O'zbekistonni 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ta'minlashda murakkab vazifa hisoblanadi.

¹ <https://lex.uz/docs/-6303230>

Ushbu moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga adolatga erishish va aholining kam ta'minlangan qatlamlariga manzilli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Mazkur jarayonlar natijasida ilmiy adabiyotlarda "soliq salohiyati" tushunchasi shakllanib, amaliy muomalaga kirib bormoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish hamda hududlarning soliq salohiyatini oshirish borasida milliy va xorijiy olimlar hamda yetakchi mutaxassislar tomonidan ilmiy va amaliy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, S.K. Xudoyqulov, Sh.A. Toshmatov, A.X. Islomqulov, N. Qo'zieva, X.A. Jo'raev, A.U. Burxanov, X.A. Qurbonov, L.A. Bozorova, B. Toshmurodova, Ye. Filatova, M.S. Shemyakina, R.V. Batashev, T.S. Vasileva va boshqa olimlar tomonidan hududlarning soliq salohiyatini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy jihatdan o'zlarining fikr-mulohazalari hamda takliflari bildirilgan.

Ushbu yetakchi olimlar va tadqiqotchilarning hududlarning soliq salohiyati borasidagi ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida tizimli yondashuv asosida hududlarning soliq salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil etilgan. Tadqiqotda tizimli tahlil, omillar tahlili, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish, hududlarning hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq salohiyati va ularga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish asosida hududlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish, davlat budjetining daromadlarini oshirish borasida ham amaliy, ham nazariy jihatdan yetakchi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari chuqur o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizning "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida hududlarning samarali faoliyati va iqtisodiy ko'rsatkichlari o'sish darajalari sifat jihatidan baholanganda, davlat tizimining samarali faoliyati ko'p jihatdan hududlarning soliq salohiyati darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Soliq salohiyati har bir davlat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Soliqlar davlatning asosiy daromad manbai hisoblanib, turli ijtimoiy dasturlar, davlat investitsiyalari va boshqa muhim loyihalarni moliyalashtirishni ta'minlaydi.

Soliq salohiyatining asosiy vazifalaridan biri davlat budjeti daromad qismi uchun soliq bazasini yaratish va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini maqsadli hamda uzluksiz ta'minlashdir. Soliq mablag'larini to'g'ri va samarali taqsimlash orqali davlat iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarishni oshirish va mamlakatning xalqaro bozordagi o'rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilib, ushbu yondashuvlar va asosiy yo'nalishlar qatorida aholining farovonligini barqaror iqtisodiy o'sish orqali ta'minlash; fiskal barqarorlikni saqlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish; "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish; soliq nazorati tizimini raqamlashtirish va markirovkalashni takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Soliq tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i stavkalarini uch yil davomida oshirmaslik kafolati berilgan. Bu tadbirlar biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, rasmiy iqtisodiyotni rivojlantirishga va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

To'liq raqamlashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektorni noqonuniy faoliyatdan ustun va foydaliroq qilish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni ta'minlash belgilangan [2].

Bugungi kunda soliq salohiyati hamda ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy holatni yaxshilashga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish doirasi kengayib bormoqda, chunki bu jarayon milliy hamda jahon iqtisodiy-moliya munosabatlarining rivojlanishi va transformatsiyasi bilan bog'liq tabiiy hodisadir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-sonli² Farmoniga [3] muvofiq hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, tuman va shaharlarni ularning sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, davlat ko'magini berish tartibini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha qadar soliq solishning quyidagi tabaqalashtirilgan tartibi joriy etilishi belgilangan. Jumladan, 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari (yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasalar, budjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va

2 <https://lex.uz/uz/docs/-6333225>



undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdorida, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini ushbu soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdoridagi soliq stavkalari bo'yicha to'laydi. 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan summalarini to'lashdan ozod etiladi. 4-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari (yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasalar, budget tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) uchun aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy soliq stavkasi 3 foiz etib belgilanadi. Bunda qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda mazkur soliq bo'yicha pasaytirilgan soliq stavkalari saqlab qolinadi.

Hukumatimiz tomonidan soliq to'lovchilarga soliq ma'muriyatchiligini yanada optimallashtirish asosida soliq salohiyatini oshirish borasida yaratilayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda iqtisodchi olimlarimiz va yetakchi mutaxassislar tomonidan soliq salohiyati to'g'risida bildirilgan fikr-mulohazalarni yana tahlil etishimiz mumkin, chunki ular keng qamrovli va keng diapazonga ega ekanligini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir. Soliq salohiyatini xo'jalik yurituvchi subyekt, hududlar hamda qolaversa, davlat miqyosida, bir tomondan davlat budjeti daromadlarini to'laqonli shakllantirish, ikkinchi tomondan xo'jalik yurituvchi subyektlar va hududlarning soliqlar (obyekti, soliqqa tortish bazasi hamda elementlari)ni har tomonlama tahlil etish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan mamlakatimizning "yashil" iqtisodiyotga o'tishi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq salohiyatini oshirish bilan bog'liq masalaga o'z munosabatimizni bildirmoqchimiz. Ma'lumki, "yashil" iqtisodiyotga o'tish asosida yangi tadbirkorlik subyektlarini shakllantirish, sarmoyalarni jalb etish orqali tegishli soliq bazasi yaratilmoqda.

Hududlarning soliq salohiyatini tadqiq etish jarayonida ularning ham nazariy, ham amaliy jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozimligi masalasi yuzaga chiqadi. Bu holat hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari davlat va hudud darajasida yaratilayotgan me'yoriy hujjatlar hamda ularning amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu qonunlar, o'z navbatida, amaliy va huquqiy jihatdan budjetni to'ldirishga intilayotgan iqtisodiy subyektlar manfaatlariga xizmat qiladigan qulay muhit yaratishni ta'minlashi lozim. Shu bilan birga, subyektlarning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashga yo'naltirilgan faoliyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi.

Hududlar soliq salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida so'z yuritishdan oldin iqtisodchi olimlarimizning "salohiyat", "soliq salohiyati" iboralariga hamda ularning iqtisodiy mohiyatiga berilgan ta'riflariga e'tibor qaratishni lozim topdik.

Professor S.K. Xudoyqulov va mustaqil tadqiqotchi L.B. Bo'ronovalar "Hududlarning moliyaviy salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarning tasnifi va ahamiyatligi" nomli maqolalarida "hududlarning moliyaviy salohiyati ularning mavjud moliyaviy resurslari (soliq salohiyati, mahalliy budjetlar daromad bazasining mustaqilligi va nomarkazlashuvi, aholining mehnat salohiyati) orqali talqin qilinadi va undan foydalanish darajasi respublika budjetidan hududlar mahalliy budjetiga ajratiladigan budjetlararo transfertlar miqdorini tavsiflaydi" [4].

X.A. Jo'rayevning "Hududlarda soliq salohiyatini oshirishning nazariy asoslari" nomli maqolalarida muallif fikricha, "soliq salohiyati" kategoriyasini tanlash to'g'ridan-to'g'ri qo'yiladigan vazifalar bilan bog'liq. Agar hududda soliq ma'muriyatini yaxshilash va soliq siyosatini amalga oshirish samaradorligini oshirish masalasi ko'rilsa, resursiy yondashuvga amal qilish lozim. Soliq tushumlari dinamikasini baholash zarur bo'lganda fiskal yondashuvni tanlash tavsiya etiladi. Budjetlararo yondashuv hudud soliq salohiyati darajasining uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini baholashda samarali bo'lishi mumkin [5].

Professor Sh.A. Toshmatov mahalliy budjetga soliq tushumlarini oshirishga yo'naltirilgan bir qator tadbirlarni keltirib, soliqlarni turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlash tizimini mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini maksimallashtirishdan manfaatdorligini ta'minlash kontekstida takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalarni bildiradi. Shuningdek, hududiy soliq salohiyatini baholash va mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish zarurligini ilgari suradi [6].

Iqtisodchi olimlarimiz A.U. Burxonov va X.A. Qurbonovlar "Hududlarda mahalliy budjetlar daromad manbalarini kengaytirish yo'llari (Qashqadaryo viloyati misolida)" nomli ilmiy maqolalarida soliq salohiyatini oshirish va mahalliy budjet daromad bazasini mustahkamlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar. Buning uchun norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish orqali budjetga tushumlarni ko'paytirish maqsadga muvofiq ekanligini qayd etadilar [7].

Bozorova L.A. "Budjet daromadlari barqarorligini ta'minlashda hududlar soliq salohiyatini oshirish yo'nalishlari: soliq siyosati" nomli maqolasida "soliq salohiyati va soliqlarning yig'im ko'rsatkichlari budjet soliq bashorati va rejalashtirishining eng muhim asosiy vositasi bo'lishi zarur" degan fikrni ilgari suradi [8].

M.A. Egorovanning ilmiy maqolalarida xorijiy mamlakatlarda soliq amaliyotida tadbirkorlik subyektlari "yashil" soliqqa tortishdan foydalanishi qayd etiladi. Ifloslanish solig'i bozor tizimi ifloslanish ko'rinishidagi ishlab



chiqarishdagi salbiy tashqi ta'sirni bartaraf eta olmagan va Pareto-optimal holatga erisha olmagan sharoitda raqobatbardosh bozor faoliyatiga davlat aralashuvining iqtisodiy jihatdan asoslangan usuli bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi [9]. "Yashil" soliqqa tortishni huquqiy tartibga solish eng keng tarqalgan xorijiy mamlakatlarda Rossiyada uni amalga oshirish imkoniyati hozircha faqat muhokama qilinmoqda. Shu bilan birga, ekologik soliqlarni undirish mexanizmi umuman ishlab chiqilgan. "Yashil" soliqlar budjetni to'ldirish vositasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar va davlat dasturlarini amalga oshirish uchun budjet mablag'larini qayta taqsimlash imkoniyatidir [10].

Mualliflarning yuqoridagi fikrlariga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, yashil iqtisodiyot butun iqtisodiyot doirasida aholi farovonligini oshirishga olib keladigan iqtisodiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar, xususan, konsepsiyalar, strategiyalar va taktikalar majmuidir. Shu bilan birga, davlat tomonidan iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun soliq salohiyatini oshirishga qaratilgan qulay muhit yaratilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish, tadbirkorlik subyektlari va umuman davlatning soliq salohiyatini oshirish hamda Davlat budjetini to'ldirish bo'yicha tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Bizning fikrimizcha, asosiy yo'nalish va faoliyat har ikki tomon — xo'jalik yurituvchi subyektlar, tashkilotlar, korxonalar va davlat manfaatlarini ko'zlab jamlangan bo'lishi lozim.

Shu bilan birga, asosiy e'tibor "yashil o'sish"ga o'tish bilan bog'liq iqtisodiy imkoniyatlar va samaradorlik ko'rsatkichlariga, shuningdek, soliq ma'muriyatchiligidan foydalanish samaradorligi, strategiyalar va taktikaga qaratilishi lozim. Bundan tashqari, tegishli faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish uchun mos soliq vositalari (soliqlar, subsidiyalar, imtiyozlar)dan foydalanish zarur. Soliq salohiyatini oshirishda soliq to'lovchilarning iqtisodiy imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Bu yo'nalishda yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilishi lozim, chunki ular samaradorlikni oshirish va "yashil o'sish" rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardir. Ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish va sifatli xizmatlar ko'rsatish yangi ekologik yondashuvlar orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqsadli investitsiya loyihalarini jalb qilish va ularni moliyalashtirish "yashil rivojlanish" va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarida innovatsion texnologiyalar va bilimlardan keng foydalanishni ta'minlaydi. Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun narxlar, soliqlar va subsidiyalar yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Tarmoqlar va korxonalarni har tomonlama moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda yashil yondashuvga ega bo'lgan ayrim korxonalar va tarmoqlar an'anaviy texnologiyalarga ega raqobatdosh bo'lishlari uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Shu maqsadda davlat yashil investitsiyalar bilan shug'ullanuvchi korxonalar yoki investorlarga soliq imtiyozlari va ma'muriy preferensiyalar ko'rinishida bevosita moliyaviy yordam ko'rsatishi mumkin. Shu bois davlat bu yo'nalishda xususiy investorlar uchun qulay sarmoyaviy muhitni yaratishi zarur. Davlat tomonidan yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun siyosiy, moliyaviy va soliq vositalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Keyingi muhim jihat mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, xodimlarning malakasini oshirishdan iborat.

Xulosa o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, yashil iqtisodiyotga o'tish kompleks va maqsadli yondashuvni, soliq ma'muriyatchiligining yangi shakllarini o'z ichiga olgan konsepsiyalar va strategiyalarni ishlab chiqishni, barqaror rivojlanishni hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashni samarali qo'llab-quvvatlay oladigan soliq islohotlarini amalga oshirishni talab qiladi. Yashil texnologiyalar va tashabbuslar uchun qulay soliq muhitini yaratish soliq salohiyatini oshirish va uzoq muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy omili bo'ladi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib, davlatning soliq salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish, ekologik loyihalarga investitsiyalar kiritish, barqaror qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash, aholining ongini oshirish, ekologik soliqlarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlik ushbu jarayonning asosiy omillaridir. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat soliq tushumlarini oshirishga, balki mamlakat uchun yanada barqaror va ekologik toza kelajakni yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to'g'risida IXTIYORIY MILLIY HISOBOTI https://api.mf.uz/media/document_files/lkkinchi_milliy.pdf
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining gi 02.12.2022 yildagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6303230>



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-sonli Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6333225>
4. Худойқулов С. К., Буранова Л. В. Худудларнинг молиявий салоҳиятига таъсир этувчи омилларнинг таснифи ва аҳамиятилиги "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021-yil 5/2021 (№ 00055) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/24_Khudoykulov_Buranova.pdf
5. Жўраев Х. А. Худудларда солиқ салоҳиятини оширишнинг назарий асослари <https://zenodo.org/records/14196805>
6. Тошматов Ш.А. Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришда давлат бюджети даромадлари манбаларини кенгайтириш йўналишлари // Ўзбекистонда молия секторини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. 2017 йил 10 ноябрь. –Т.: ТДИУ, 2017. -б.27-28.
7. Бурханов А. У., Қурбонов Х. А. Худудларда маҳаллий бюджетлар даромадлар манбаини кенгайтириш йўллари (Қашқадарё вилояти мисолида) "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журналы. № 1, январь-февраль, 2018 йил 1/2018 (№ 00033) www.iqtisodiyot.uz
8. Бозорова Л.А. Бюджет даромадлари барқарорлигини таъминлашда худудлар солиқ салоҳиятини ошириш йўналишлари солиқ сиёсати / налоговая политика иқтисод ва молия / экономика и финансы № 12, 2012 <http://uzscite.uz/wp-content/uploads/2020/06/64-67-1.pdf>
9. Егорова М. А. Основные направления правового регулирования «зеленого» налогообложения для целей предпринимательской деятельности: опыт зарубежных стран // Актуальные проблемы Российского права. — 2022. — Т. 17. — № 7. — С. 71–79. — DOI: 10.17803/1994-1471.2022.140.7.071-079
10. Adolf C., Röhrig K. Green Taxes As a means of financing the EU budget: policy options // The Greens/European Free Alliance. October 2016. 76 p. URL: https://green-budget.eu/wp-content/uploads/2016-10-20_FINAL_PolicyOptions-for-Ecological-European-own-resources.pdf

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100